

“BOBURNOMA” ASARINING DUNYO ADABIYOTIDAGI O‘RNI

Ma‘mura Bannopovna Abdukarimova

Farg‘ona davlat universiteti fransuz tili o‘qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so‘zlar:

Bobur, she‘riyat, asar, tarjima, «Boburnoma», fransuz tili, o‘zbek tili.

Annotatsiya

Maqolada Boburning hayoti va ijodi, shuningdek « Boburnoma » asarining dunyo adabiyotidagi tutgan o‘rni haqida ma‘lumotlar berilgan. Boburning hayot yo‘lini va uning “Boburnoma” asarini o‘rgangan va o‘rganishda davom etayotgan yevropalik olimlarning qilgan ishlari misollar bilan asoslangan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Kirish.O‘zbek klassik adabiyotining XV asr oxiri, XVI asrning boshlarida yashab ijod etgan atoqli namoyandalardan biri, ijtimoiy hayotning ko‘pgina sohasida muhim rol o‘ynagan yirik siymolardan biri, Zahiriddin Muhammad Boburdir.U atoqli davlat arbobi, sarkarda, iste‘dodli shoir, adib, tabiatshunos olim va tarjimondir.U adabiyot, san‘at, tarix, tabiyot fanining turli sohalarida ijod qildi, ajoyib tadqiqotlar yaratdi. Shu bois Boburning ilmiy adabiy merosi hozir ham o‘zining tarixiy-ma‘rifiy, ilmiy-estetik qimmatini saqlab kelmoqda.Bobur shaxsiyatini o‘rganish va uning boy merosini kelajak avlodga to‘laligicha saqlab yetkazish eng muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.O ‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste‘dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzodaning hayot yo‘lini o‘rganish masalasi hali hamon davom etib kelyapti.Yosh avlodni ajdodlar merosiga xurmat ruhida tarbiyalash maqsadida maktab darsliklarida ham Boburning hayoti va ijodi haqidagi ma‘lumotlar keng yoritilgan.

Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzo Bobur 1483 yil 14-fevralda Andijonda tavallud topgan.Boburning otasi-Umarshayx Mirzo o‘z davrida Farg‘ona viloyatining hokimi bo‘lgan.Onasi-Qutlug‘ Nigorxonim esa Mo‘g‘uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi bo‘lgan.

Barcha temuriy shahzodalar kabi Bobur ham ilmi tarbiyachilar qo‘lida voyaga yetadi.Barcha fanlarni mustahkam egallaydi, ayniqsa she‘riyatni juda mehr bilan o‘rganadi.Boburning otasi Umarshayx Mirzo mashhur so‘fiy Xoja Ahrorga ixlos qo‘ygan edi.Bobur ham otasi yo‘lidan borib, umrining oxirigacha shu e‘tiqodga sodiq qoladi.Otasining bevaqt vafotidan so‘ng, 12 yoshida taxtga o‘tirgan Bobur shu yoshuda dovyurakligi, qat‘iyligi va jasurligi uchun “Bobur”, ya‘ni “Sher” laqabini olib ulgurgan edi.Shuning uchun ham u davlat boshqaruvini qo‘rqmay qo‘liga oladi.Boburning asosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti Samarqandni egallash va Amir Temur saltanatini qayta tiklash edi.Lekin Bobur bu maqsadiga yeta olmaydi, ichki nizolar, mamlakatdagi sotqinliklar yosh Boburning o‘z yurtini tashlab ketishiga sabab bo‘ladi.200-300 nafar navkari bilan Xisor tog‘lari orqali Afg‘onistonga o‘tib ketadi.U yerda ham mamalakat ichida kichik nizolar ro‘y berayotgan edi.Bu esa Boburga qo‘l keladi va

osongina Qobulni egallab oladi. Bu haqda Bobur o'zining "Boburnoma" asarida shunday degan: " *...Rabiulavval oyining avoxirida tengri taolo fazl va karami bila Kobul va G'azni mulk va viloyatini bejangu judol muyassar va musaxxar qildi*" Afg'onistonni o'z yurti kabi ko'radi. Mamlakatda kuchli intizom or'natadi va mamlakatni gullab-yashnashi uchun xarakat qiladi. Mamlakatni obdon o'rganib chiqadi. Uning geografik joylashuvi, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi ma'lumotlarni to'liq biladi. Bobur o'zining "Boburnoma" asarida Afg'oniston haqida xuddi o'zi tug'ilib o'sgan yurt haqida gapirgandek ma'lumotlar berib o'tgan: *"Kobul viloyati to'rtinchi iqlimdindir. Ma'muraning o'rtasida tushubtur. Sharqi Lamg'onot va Purshovar va Hashang'ar va ba'zi Hind viloyatidir. G'arbi Ko'histonlardurkim, Karnud va G'o'r ul ko'histondadir... Garmseriy va sardseriy mevalar Kobul tavobeida ko'ptur va yovuqtur. Kobul kentlarida sardseriy mevalardin uzum va anor va o'ruk va olma va bihi va amrud va shaftolu va olu va sanjid va bodom va yang'oq ko'ptur...*

Bobur shahar ichidagi Bolo Hisor qal'asini o'z qarorgohiga aylantiradi va oilasi bilan yashay boshlaydi. Boburning Humoyun, Gulbadanbegim, Komron va Hindol ismli farzandlari shu yerda tug'iladilar. Bobur Afg'onistonni kuchli davlatga aylantiradi.

Bobur bir necha bora Hindistonga yurushlar qiladi va 1526 yilda Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyni yengadi. Endi Hindistonning Bengaliyagacha bo'lgan qismi Boburning nazoratiga o'tadi. Bobur Agra shahrini poytaxt sifatida tanlaydi va bu yerda ham obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi. Hindistonni ham xuddi Afg'oniston kabi birlashgan, kuchli, qat'iy intizomli, boy va obod mamlakatga aylantirish ishlarini boshlab yuboradi. Hindistonning geografik joylashuvi, viloyatlari, iqlimi, hayvonot dunyosi va o'simlikari ham Boburning qiziquvchan nazaridan chetda qolmaydi. Hindistonni ham erinmay o'rganib chiqadi. Bobur o'zining "Boburnoma" asarida Hindiston haqida ham ma'lumotlar berib o'tgan:

"Hinduston avvalg'i iqlimdin va ikkinchi iqlimdin va uchunchi iqlimdindir. To'rtunchi iqlim Hindustonda yo'qtur. G'arib mamlakate voqe bo'libtur." Yoki, o'simlik dunyosi haqida *"...Ekinlari tamom lalimiydur... Ba'zi ziroatlarga suv ehtiyoj bo'lsa, er va xotun ko'za birla suv tashib sug'oradilar..."*

"Hinduston maxsusidir, anbadur... Aksar xom uzadurlar, uyda pishadur, xomi xo'b bo'ludur. Go'rasining murabosi ham xo'b bo'ludur..."

"...yana kayladur, arab mavz derlar. Daraxti xeyli baland emas, balki daraxt deb ham bo'lmas. Giyoh bila daraxt orasida bir nimadur." Bundan tashqari, anbuliy, xurmoyi hindiy, mahva, gul chikon, kirni, joman, kamrak, kadhil, badhal, biyr, karunda, kunor, mirminxon, panyola, gular, panjula, omula, chirunchi, norgil, tor, noranj, limu, chanbiriylar kabi juda ko'p mevali daraxtlar haqida ham nodir ma'lumotlar berilgan.

Bobur Hindistonning hayvonot olamini ham to'liq tasvirlab yozgan. *"Hayvonotkim, Hinduston maxsusidir, fuhushdin bir fildurkim, Hindustoniylar "hotiy" derkim, Kolpi viloyatining sarhadlarida bo'lur."*

"Yana sahroyi govmishidir. Bu govmishdin heyli ulug'roqdur. Shoxi bu govmishning shoxidek keyinga boqa yotiq emasdur."

"Yana nilagovdur, balandlig'i otcha bo'lg'ay, otdin bir nima inichkarakdur. Erkagi ko'kdur. Bu jihatdin g'olibo nilagov derlar."

Bobur Hindiston hayvonlarini har biriga alohida nisbat berib ta'riflagan. Hindistondagi kiyik turlarini alohida jihatlarini va nomlarini erinmay ta'riflagan. Bug'u-maral, ko'tahpoy, oq kiyik, jayran, o'y, galahra kabilar shular jumlasidandir. Bundan tashqari, Hindiston maymunlarining turlari va qushlarining har biri haqida bir-biriga o'xshamagan, alohida jihatlarini bayon etib, qimmatli ma'lumotlar keltirgan. Tovus, to'ti, shorak, Kashmir to'tisi, Jangaliylar to'tisi, lo'cha, durroj, kanjal, pul-pakor, sahroyi tovuq, chalsiy, bedana, xarchal, tug'doq, charz, bag'riqaro, ding, soras, tevaturna, manik, laylak, ulug'bo'zak, oq bo'zak, sor, o'rdak, burchin, g'armpoy, shahmurg', zumaj, bo'rk, olaqarg'a, qarg'a,

hakka, murg'i janjal, shappara, chamagdar, sondug'och, qorlug'och, quyil, zog'cha, shaqroq kabi qirqdan ortiq qush va parrandalarni bir-biriga solishtirib bergan. Suvda yashaydigan hayvonlardan sheri obiy, sepsor, kals, huki obiy, karyol, kakka baliq, ushoq baliq, baqalarga ham alohida ta'rif bergan.

Bobur o'zi yashagan joylarning nafaqat tabiatini, balki o'sha yerdagi odamlarning ko'rinishi, fe'l-atvori, tili, lahjasi, urf-odatlari haqida juda mukammal va aniq ma'lumotlar keltirganki, buncha ma'lumotni bir inson emas, balki ko'pgina olimlar tomonidan to'plangan ma'lumotlar deb o'ylash mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, Bobur hamma sohada ham mukammal bilimga ega bo'lgan, har bitta yangi narsaga diqqat bilan, qiziqish bilan yondoshgan. "Boburnoma" asari nafaqat Boburiylar haqidagi memuar asar, balki juda ko'p soha vakillari ucnun ancha ma'lumotlar olish mumkin bo'lgan ma'lumotlar bazasi hamdir.

"Boburnoma" tilshunoslikda ham o'rganish muhim bo'lgan ma'lumotlarni bizga taqdim eta oladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining qarama-qarshiliklarga boy, murakkab va qisqa hayoti davomida (1483-1530) anchagina asarlar yaratgan bo'lsa-da, ularning hammasi ham bizgacha yetib kelmagan. Boburning hozirgacha ilm xazinasiga yetib kelib qo'shilgan asarlari- uncha to'liq bo'lmagan bir devoni, islom dini asoslarini bayon etuvchi "Mubayyin" nomli she'riy risolasi, "Volidiya" deb atalgan tasavvufga oid bir kitobchani nazm bilan tarjimai, Bobur ixtiro qilgan va "Xatti Boburiy" nomi bilan mashhur bo'lgan alfavit jadvali, hamda "Boburnoma" asaridir. Uning ishlari ilmiy jihatdan katta ahamiyat qozonishi bilan chet el olimlarining diqqatini o'ziga tortib kelmoqda.

Boburning "Boburnoma" asari ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega ekanligi bois chet el olimlari diqqatini ham o'ziga tortib kelmoqda. "Boburnoma" asari ayniqsa, fransuz olimi va tarjimoni Baki Grammon ilmiy ijodida katta qiziqish uyg'otdi. U Bobur hayoti va ijodini sinchiklab o'rganib chiqdi va 1991 yilda "Boburnoma" asarini fransuz tiliga mahorat bilan tarjima qildi. Baki Grammon mana shu tarjima asari uchun "Nobel" mukofoti, hamda Fransiyaning "Palma" mukofotiga sazovor bo'ldi.

"Boburnoma" asari juda ko'p tillarga tarjima qilingan. Juda ko'p olimlar Boburning hayoti va ijodini o'rganishda davom etmoqdalar.

"Boburnoma" shunday qimmatga egaki yevropalik sharqshunos olimlar P.de Kurteyl, H.Vamberi va Elfinsonlar bu asarni qadimgi Rim imperatori Yuliy Sezarning "Xotiralar" kitobi bilan bir qatarga qo'yib baholagan edilar.

Yevropalik olimlar ichida birinchi bo'lib fransuz sharqshunosi Bartolome d'Erbelo Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ma'lumot bergan. U o'zining "Sharq kutubxonasi" qomusidagi "Bobur yoki Bobar" maqolasida Boburning hayoti, ijodi, adabiyotga bo'lgan qiziqishi, davlat boshqaruvidagi mahorati, sarkardalik salohiyati to'g'risida batafsil ma'lumotlar bergan. 1697 yilda chiqqan bu maqola Boburni yevropada tanilishiga sabab bo'ldi. "Boburnoma"ni birinchi bo'lib yevropaga tanitgan olim esa gollandiyalik adabiyotshunos olim Vitsen hisoblanadi. Chunki bu olim "Boburnoma"dan olingan ba'zi parchalarni 1705 yilda tarjima qilgan va chop ettirgan. Keyinchalik Bobur va "Boburnoma"ni o'rganish bo'yicha ishlar yana Fransiyada avj oldi. 1773 yilga kelib fransuz sharqshunosi A.de Longperye o'zining "Asarlar" nomli to'plamida Bobur ixtiro qilgan "Xatti Boburiy" haqidagi maqolasini chop ettirdi. U o'zining "Xatti Boburiy" haqida nomli maqolasida o'sha davrdagi mavjud arab alifbosi, uning murakkablik tomonlari, "Xatti Boburiy"ning esa qulay tomonlar haqida solishtirib fikrlar bildirgan. Yozish uchun ham yangi alifboning qulay tomonlari ko'p ekanligini ta'kidlab o'tgan. 1783 yilga kelib "Boburnoma"ni fransuz tiliga tarjima qilish ustida ishlar boshlanib ketdi. Bu yillarda asarni tarjima qilish bilan birga uning matn xususiyatlarini va uning siyosiy-tarixiy ahamiyatini o'rganishda, baholashda fransuz olimlari e'tiborga molik tadqiqotlar yaratishdi. Birinchilardan bo'lib asarni tarjima qilish va tadqiq qilishga fransuz sharqshunosi Anri Jyul Klaprot kirishdi. 1824 yilda A.Klaprotning "Sulton Bobur yoxud "Boburnoma" tarixiga oid kuzatishlar" nomli maqolasi nasr etildi. Klaprot Markaziy Osiyo va Sibir xalqlari hayotini, madaniyatini, tarixini yaxshi bilganligi uchun "Boburnoma" asarini ham to'la tadqiq qila oldi. 1854 yilda Parijda "Hozirda va qadimda yashagan

tarixiy shaxslar hayoti” nomli kattagina kitob chop etildi. Ushbu kitobdan yana bir fransuz olimi M. Langlengning “Zahiriddin Bobur hayoti va ijodi” nomli maqolasi ham o‘rin olgan edi. Bu maqolada avvalgi maqolalarga nisbatan Boburning hayot-faoliyati haqidagi fikrlar ko‘proq berilgan edi.

Keyinchalik, XIX asrning 60-yillarida fransuz leksikografi Pyer Laruss o‘zining “Zahiriddin Muhammad Bobur” maqolasini yozdi. Maqolada “Boburnoma” asarining yaratilish tarixi, uning turli tillarga tarjima qilinishi tarixi haqida qimmatli ma‘lumotlar berib o‘tgan. Bu asarning Fransiya uchun hali noma‘lum ekanligini, hali fransuz tiliga tarjima qilinmaganligini, bu asar dastlab forsiy tiliga, undan so‘ng hind tiliga tarjima qilinganini aytib o‘tadi. Laruss o‘zining maqolasida “Boburnoma” haqida, uning yozilish tarixi haqida ma‘lumotlar bergan. Jumladan, Boburning “Boburnoma” asarini qachon yozgani xali ham aniq emasligini ham ta‘kidlagan. U Bobur bu asarni Hindistondagi hukmronlik qilgan yillari yozgan, degan taxminini ham aytib o‘tgan. Darhaqiqat, “Boburnoma” asarining qachon, qayerda yozilgani haqida aniq ma‘lumot hech qayerda berilmagan. Ammo, asarning mazmunidan asarning eng ko‘p qismi Hindistonda yozilganligi bilinib taradi. “Boburnoma” asrini mukammal o‘rganishga bel bog‘lagan yana bir olim, fransuz turkologi de Kurteyl “Sharqiy turkiy tillar lug‘ati” yoxud “Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va Abulg‘ozi Bahodirxon asarlarini o‘qish uchun izohli lug‘at” deb nomlangan ajoyib lug‘at yaratdi. Professor Pavel de Kurteylning eski o‘zbek tilini, adabiyotini yaxshi bilgani uchun “Boburnoma” asarini tarjima qilishga yetakladi. 1871 yilda Pavel de Kurteylning ikki jildidan iborat tarjimasi nashrdan chiqdi. Birinchi jildda tarjimonning 16 sahifali so‘zboshisi berilgan. Unda “Boburnoma” ning yozilish tarixi, unda tasvirlangan turli davr tasvirlari, Zahiriddin Muhammad Boburning Afg‘oniston va Hindistondagi barpo etgan qudratli imperiyasi haqida ham to‘liq ma‘lumotlar berilgan. Professor de Kurteyl ham “Boburnoma” asarini Hindistonda yozilgan degan taxminga qo‘shilishini aytdi. “Boburnoma” aynan Bobur Hindistonda hukmronlik boshlagan paytida boshlangan va Bobur umrining oxirigacha davom etgan, degan fikrni bildirgan. Bobur o‘zi, oilasi, qarindoshlari haqidagi fikrlarni esdalik sifatida o‘zi uchun yozib yurgan. Andijondan chiqib ketganda yurgan yo‘llarini, bosib o‘tgan davlatlarini ham puxta o‘rganib olgan. Bular haqida ham ancha ma‘lumotlar to‘plagan. Keyinchalik, Bobur Hindistonga borgach, kuchli imperiya tuzgan va turg‘un hayot kechira boshlagan. Huddi ana shu davrda jami to‘plangan ma‘lumotlar asosida “Boburnoma” asari paydo bo‘lgan.

1888 yilga kelib yana bir sharqshunos olim Jyul Darmstetye ham “Boburnoma” haqida ma‘lumotlar bera boshladi. Uning “Qobul yozuvlari. Boburshoh va boshqa mo‘g‘ul shahzodalarning qabrtoshlaridagi bitiklar” degan maqolasi “Osiyo” jurnalining ikkinchi jildida nashr etildi. Maqolada Bobur va boburiylarning maqbaralaridagi bitiklar, ularning ma‘nosi, bu bitiklarning fransuz tilidagi tarjimasi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Zahiriddin Boburning “Aruz risolasi” nomli asari turkiy xalqlarning, shuningdek o‘zbek xalqi she‘riyatining qonuniyatlarini o‘rgatadigan muhim qo‘llanma hisoblanadi. Lekin bu qo‘llanmaning asl nusxasi saqlanib qolgan yoki saqlanmagani haqida fikrlar mavhum edi. 1923 yilga kelib bu qo‘lyozmaning bir nusxasi Parijdagi Milliy kutubxonada saqlanayotgani haqidagi xabar paydo bo‘ldi. Bu ma‘lumot turk olimi M.F. Ko‘prulizoda tomonidan e‘lon qilingan. Yana bir fransuz sharqshunos olimi Edgar Bloshe ham o‘zining “Milliy kutubxonada saqlanayotgan turkiy qo‘lyozmalar katalogi” nomli kitobida bu haqda ma‘lumotlar berib o‘tgan. Bundan tashqari, Bloshe Zahiriddin Boburning “Devon” asarining qo‘lyozmasi ham ushbu Milliy kutubxonada saqlanayotgani haqida ma‘lumot bergan. Bloshe aytishicha, Boburning bu “Devon”i 1515 yilda Qobulda ko‘chirilgan ekan. Bu asar Boburning g‘zallari, ruboiylari va ularga ishlangan munitatyuralar bilan boyitilgan. XX asrga kelib ham Bobur shaxsiyati va uning boy merosini o‘rganish, ayniqsa uning “Boburnoma” asarini tarjima qilish borasidagi ishlar yana jadal tus oldi. 1930 yilda fransuz sharqshunoslaridan yana biri Fernand Grenard o‘zining “Bobur. Xind imperiyasining asoschisi» deb nomlangan risolasini yaratdi. O‘n bobdan iborat ushbu kitob nashrdan chiqdi. Ushbu kitobdagi voqea-hodisalar “Boburnoma” asaridagi voqealar bilan deyarli o‘xshash yozilgan bo‘lib, Boburning bolaligidan tortib umrining oxirigacha bo‘lib o‘tgan barcha ma‘lumotlar kiritilgan. Grenard o‘z asarida shoh Bobur va shoir

Boburga alohida ta'rif berib o'tgan.Uning tavsificha Bobur jangu jadalni xush ko'radigan shoh emas, yurtini himoya qiladigan mard, ayni paytda nozikta'b shoir, dilbar shaxs bo'lgan.

Grenardning bu risolasida Boburning turli davrlardagi holatlari tasvirlangan muniatyuralar va risola so'ngida o'sha davrdagi Markaziy Osiyo va Xindistonning chegarasini ko'rsatib beruvchi xarita ham ilova qilingan.Fernand Grenardning bu kitobi 1971 yilda ingliz tiliga tarjima qilingan.1983 yili YUNESKO qarori bilan Bobur tavalludining 500 yilligi keng nishonlandi.Bu sanaga fransuz sharqshunos olimlari ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.Bugun Fransiya Yozuvchilar tashkiloti bilan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bu kabi asarlarni to'liq va qayta tarjima qilish borasida hamkorlikni yo'lga qo'ygan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma".Toshkent 1989.
2. Jean-Luis BASQUE-GRAMMONT.Le livre de Babur.Paris 1985.
3. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2017 yil,2-son
4. "Fransiya adabiyotida romantik janr va romantik san'at".Jo'rayeva Shalola Husanboyevna.ILM-FAN VA TA'LIMNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 24-konferensiya to'plami.2022.24.03.
5. Abdullaev, Ziyodbek (2021) Usbekische Personennamen - Etymologie, Grammatik, Pragmatik. PhD, Universität Regensburg.
6. Askarova, S. I. (2019). Bilingualism And Polylingualism: Aspect Of Linguistics Combining Different Sociocultural Communities. *International Journal Of Student Research*, (3), 76-79.
7. Ismailovna, A. S. (2021). Phonetic Interference Of Vowel Phonemes In Uzbek-Russian And Uzbek-German Bilingualism. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 831-836.
8. Askarova, S. (2020). German Borrowings At The Level Of Vocabulary In The Conditions Of Uzbek-German And Uzbek-Russian Bilinguism (In Conditions Covid-19). *European Journal Of Molecular And Clinical Medicine*, 2943-2953.
9. Askarova, S. 2. Überblick Zur Tätigkeit Von Josef Haslinger. In *Conference Paper "Modern Approaches And Methods Of Teacher Training" For German Language Teachers* (P. 3).
10. Аскарлова, Ш. И. Роль Первого Языка В Усвоении Детями–Билингвами Системы Множественного Числа Имён Существительных Немецкого Языка.
11. Аскарлова, Ш. И. (2017). Использование Интерактивных Методов Преподавания На Занятиях Иностранного Языка. *Актуальные Научные Исследования В Современном Мире*, (5-2), 29-32.
12. Аскарлова, Ш. И. (2022). К Вопросу Грамматической Интерференции При Узбекско-Русском И Узбекско-Немецком Билингвизме. *Архив Научных Исследований*, 2(1).
13. Asqarova, S. I. (2020). Terminology Of The Direction Of Language Contacts In Modern Linguistics. *Scientific Bulletin Of Namangan State University*, 2(11), 234-239.
14. Mamadodilovna, M. N. (2021, November). Strategies For The Development Of Oral Speech In German. In *Archive Of Conferences* (Vol. 22, No. 1, Pp. 93-95).
15. Mamadodilovna, M. N. (2022). Einsatz Der Kommunikationsstrategien Für Die Förderung Des Sprechens Im Daf-Unterricht. *Berlin Studies Transnational Journal Of Science And Humanities*, 2(1.5 Pedagogical Sciences).
16. Мерганова, Н., & Кодиров, Ш. (2017). Использование Песен На Уроках Иностранного Языка. *Актуальные Научные Исследования В Современном Мире*, (5-2), 61-64.

17. Mamadodilovna, M. N. (2021, November). Strategies for the Development of Oral Speech in German. In *Archive of Conferences* (Vol. 22, No. 1, Pp. 93-95).
18. Mamadodilovna, M. N. (2022). Einsatz Der Kommunikationsstrategien Für Die Förderung Des Sprechens Im Daf-Unterricht. *Berlin Studies Transnational Journal Of Science And Humanities*, 2(1.5 Pedagogical Sciences).
19. Mukhtorovna, Y. S. (2021). Regularly Used Phrasal Verbs German Language. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 673-680.
20. 20 Inter, F. L. I. (2017). An International Multidisciplinary Research Journal. *An International Multidisciplinary Research Journal*, 41(43).
21. Yusufjonova, S. (2020). Comparative Analysis of Phrases In Uzbek And German. *Theoretical & Applied Science*, (2), 590-592.
22. Yusufjonova, S. (2021). Certain Linguistic Peculiarities of Phraseological Units. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(2), 289-293.
23. Mukhtorovna, Y. S. (2022). Historical Development of Translation Of Phraseologicalunits. *International Journal of Culture And Modernity*, 14, 20-29.
24. Teshavich, D. I. (2022). Scientific-Theoretical Bases and Principles of Speech Etiquette Units In World Linguistics ("Etiquette De La Parole"). *International Journal of Culture and Modernity*, 14, 39-42.
25. Raxmonalievna, A. G. (2022). Lexical Units Related To The Education System In A Comparative Study Of Different Languages. *Spanish Journal Of Society And Sustainability*, 6, 1-6.